Holati: Ijobiy
Direktor: Alimdjanov Xayrulla Amanullayevich
Sana: 06-04-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

203255 - SONLI

Obyekt nomi: Маҳалла маркази ҳамда савдо ва маиший шаҳобчалар қуриш.	
Buyurtmachi:	“Rustam Savdo Guzari” MCHJ
Bosh loyihachi:	"ARXI-KAD INVEST" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	010228

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar xokimining 2017-yil 25-maydagi №646-sonli hamda Toshkent shahar Olmazor tumani xokimining 2018-yil 17-martdagi №548-sonli “Zamonaviy mahalla loyihasi asosida mahalla markazlari hamda savdo va maishiy shahobchalari tashkil etish uchun yer maydonlari ajratish hamda mavjud mahalla binolarini rekonstruksiya qilish, qayta qurish ishlariga ruxsat berish” haqidagi qarorlari.

1.2. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan 2018-yil 21-mayda tasdiqlangan №858T-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.3. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasining 27.01.2023-yildagi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 63691-sonli xulosasi.

1.4. Buyurtmachi tomonidan 20.12.2022-yilda belgilangan tartibda kelishilgan va tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

1.5. “Geo Mir” MCHJ tomonidan 2023-yilda qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari bo‘yicha bajarilgan xulosa.

1.6. “Memar construction-expert” MCHJ tomonidan 2024-yilda bajarilgan “Toshkent shahar Olmazor tumani Tansiqboyev-4 mavzesi Beshqo‘rg‘on ko‘chasi 6-uy yonida “Mustaqillik” mahalla hududida mahalla markazi hamda savdo-mayishiy shahobchalar qurish” obyektini qurilish konstruksiyalarining holati bo’yicha texnik xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixa tarkibiy bayoniga ko‘ra “Ishchi loyiha» elektron yo‘nalishda taqdim qilingan.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Mavjud binoning texnik holati.

“Memar construction expert” MCHJ tomonidan 2024-yilda bajarilgan texnik xulosaga ko‘ra mavjud binoning texnik holati quydagicha:

Poydevor – quyma lentasimon temir-beton (texnik holati qoniqarli).

Devorlari - 380 mm qalinlikdagi g‘ishtdan iborat va temir beton qo‘shib mustahkamlangan (texnik holati qoniqarli)..

O‘zak qismi (serdechnik) - quyma temir-beton (texnik holati qoniqarli).

Belbog‘ qismi (obvyazochnыy poyas) - quyma temir-beton (texnik holati qoniqarli).

Tom qismi – profnastil metall ferma va yog‘och bo‘ylab (texnik holati qoniqarli).

Qurilish maydonining xususiyatlari.

Qor qoplami vazni - 0,50 kPa.

Shamol bosimi - 0,38 kPa.

Zilzilaga bardoshligi - 9 ball.

Tuproqning zilzilabardoshlik bo‘yicha kategoryasi – **II (ikkinchi).**

Muhandislik-geologik tadqiqotlariga ko‘ra qurilish maydoni lessovid, suglenok, tuproqlaridan iborat:

Chuqurlikdagi yer osti suvlarining eng yuqori darajasi – 8.3 m.

Tuproqning muzlash chuqurligi – 0,70 m.

3.2. Asosiy rejasi.

Bosh rejaga muvofiq Toshkent shahar Olmazor tumani Tansiqboyev-4 mavzesi Beshqo‘rg‘on ko‘chasi 6-uy yonida “Mustaqillik” mahalla hududida mahalla markazi hamda savdo-mayishiy shahobchalar qurish rejalashtirilgan.

Texnik iqtisodiy ko‘rsatgichlari quyidagicha.

Umumiy maydoni – 1 211,2 m2;

Qurilish maydoni – 1 211,2 m2;

Qurilish xajmi – 6 177,1 m3;

3.3. Arxitektura va qurilish yechimlari.

Mahalla markazi hamda savdo-mayishiy shahobchalar binosi – 1-qavatli to‘rtburchak shaklga ega bino rejadagi o‘lchami 38,05x53,92 metrni (1÷20 va A÷Y o‘qlar) tashkil etadi. Bino koridor, xizmat xonalari, sanuzel, faollar zali, dorixona, savdo do‘koni, nonvoyxona, kutubxona, oshxona, ko‘tish xonasi, ayvon iborat bo‘lib balandligi h=2.9 metr.

Bezatish ishlari

Poypesh – granit toshi.

Devor yuzasi – suvemulsiyasi.

Shift – gipsokarton ustidan suvemulsiyasi.

Pol – keramik plita.

Eshik – alyumin.

Deraza – alyumin.

Poydevor – quyma lentasimon temir-beton, tarkibi kl.V15 beton.

Devorlari - 380 mm qalinlikdagi g‘ishtdan iborat va temir beton qo‘shib mustahkamlangan.

O‘zak qismi (serdechnik) - quyma temir-beton tarkibi kl.V15 beton.

Belbog‘ qismi (obvyazochnыy poyas) - quyma temir-beton tarkibi kl.V15 beton.

Tom qismi – profnastil metall ferma va yog‘och bo‘ylab.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Binoning isitish, shamollatish, elektr energiyasi, suv, kanalizatsiya va boshqa muhandislik tizimlari mavjud tarmoqqa ulangan.

4.2. Yong‘inga qarshi chora – tadbirlar.

Loyihada chiqish yo‘laklari yordamida odamlarni evakuatsiya qilish ko‘zda tutilgan. Qochish yo‘llaklarida eshiklarni ochilishi binodan chiqish yo‘nalishida ta’minlangan. Loyihada yong‘in sodir bo‘lganda xabar berish qobiliyatiga yega yong‘in signalizatsiyasi tizimi ham ko‘zda tutilgan.

Yong‘inda o‘t o‘chirish mashinalari uchun bino atrofida o‘tish yo‘llari mavjud.

4.3. Energiya tejamkorlik samaradorlik bo‘yicha chora tadbir.

Binolarning yo‘lak va ko‘chalarini yoritishda qisqa vaqtda yonib o‘chadaigan qurilmalar, yorug‘likni sezuvchi qurilmalar va quyosh fotoelektrik tizimini o‘rnatish nazarda tutilgan;

Xonalarda haroratni maromlash uchun isitish radiatorlarida termostatlarni qo‘llash, issiqlik tarmoqlarini plastik quvurlarda ishlash hamda izolatsiya ishlarini amalga oshirish;

“Energiya samaradorlik” qismida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatish ko‘zda tutilmagan loyiha hujjatlari bo‘yicha qurilish ishlarini boshlash hamda issiq suvdan foydalanish rejalashtirilgan yangi bino-inshootlarda quyosh suv isitish qurilmalarini o‘rnatish ko‘zda tutilmagan taqdirda bunday bino-inshootlarni foydalanishga qabul qilish taqiqlanadi asos O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF220-sonli farmoni;

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasining 27.01.2023-yildagi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 63691-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizaning 26.01.2024-yildagi 01-01/04-183-sonli ekologik hulosa.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida ekspert mutaxasislar xulosalari asosida ishchi loyihasiga quyidagi tuzatishlar kiritildi:

loyihani shaharsozlik me’yor va qoidalari talablariga, shu jumladan energiya jihatidan samarador hamda energiyani tejaydigan texnik, texnologik va innovatsion loyiha yechimlarini qo‘llash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivochlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF220-sonli farmoni yuzasidan ko‘rsatmalar berildi;

mutaxasislar ko‘rsatmalariga muvofiq loyixaviy yechimlarga tuzatishlar kiritilib qayta taqdim etildi.

6.2. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.3. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qaroriga muvofiq 1-ilova, III bob 29-band va SHNK 1.03.06-13 muvofiq «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va loyihalovchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. “Toshkent shahar Olmazor tumani Tansiqboyev-4 mavzesi Beshqo‘rg‘on ko‘chasi 6-uy yonida “Mustaqillik” mahalla hududida mahalla markazi hamda savdo-mayishiy shahobchalar qurish” ishchi loyihasini ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib

tasdiqlashga tavsiya etiladi.
Ekspertlar: KJ- A.T. To‘xtaxojayev, AR- B.Normatov,
PS-EO- A.Yuldoshev, VK-OV-SH.Mirsagatov